



T.N.Qori Niyoziy nomidagi O'zbekiston Pedagogika
fanlari ilmiy tadqiqot instituti

UZLUKSIZ TA'LIM



ILMIY-USLUBIY JURNAL

2020,
Maxsus son

DJURAYEV Risbay
Bosh muharrir

Jurnal 2001 yildan nashr qilina
boshlangan.

O'z MAAdan 2007 yil 3-yanvar-
da № 0101-tartib raqami bilan
qayta po'yxatdan o'tgan.

Jurnalda e'lon qilingan
maqolalardan iqtibos keltiril-
ganda «Uzluksiz ta'lim»
jurnalidan olinganligi ko'rsa-
tilishi lozim.

Tahrir hay'ati:

Sherzod SHERMATOV
Uzoqboy BEGIMQULOV
Alisher UMAROV
Nargiza RAXMANQULOVA
Xolboy IBRAGIMOV
Shavkat QURBONOV
Roxatoy SAFAROVA
Islom ZOKIROV
Dono G'ANIYEVA
Lobar QARAXANOVA

Тахририят

манзили:

100027, Toshkent sh.,
Furqat ko'chasi,
174-uy.

O'zPFITI

Tel.: (71)-245-92-34

(93)-503-52-07

e-mail: uzluksiztalim_jurnal@mail.ru

liya_2305@mail.ru

TA'LIM MAZMUNI UZLUKSIZLIGI

- 3 **O.X.Xamidov**
Oliy ta'lim va maktabgacha ta'lim muassasalari integratsiyaning asosiy tendensiyalari va muammolari
- 9 **O.R.To'xsanov**
Uzluksiz ta'lim tizimida sharq mutafakkirlarining «ilm olmoq» ta'limoti mohiyati
- 13 **G.O.Hasanova**
Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida innofatsion pedagogik texnologiyalarning qo'llanishi
- 17 **M.M.Nigmatova**
Mashg'ulotlardan zamonaviy o'quv vositalaridan foydalanish
- 21 **G.Kamilova, G.Kurbonova**
Maktabgacha ta'lim muassasalarida ekologik tarbiyani tashkil etishda integrativ yondashuv
- 25 **Z.B.Jalilov, N.H.Azimova, S.Rahmonova**
Ta'lim muassasalarida estetik tarbiyani amalga oshirishning pedagogik shart-sharoitlar
- 29 **S.S.Avezov**
O'qituvchi nutq madaniyati kompetentligi
- 33 **G.U.Umarova**
Bolalarning iqtisodiy bilimdonligini rivoshlantirishda matematik tasavvurlarni shakllantirish mashg'ulotlarning ahamiyati
- 38 **D.Sh.Mirzayeva**
Maktabgacha ta'lim uzluksiz ta'limning poydevori
- 42 **D.Sh.Eshova, N.N.Hamroyeva**
Bolalar nutqini o'stirishda o'yinlar va sahnalashtirish faoliyatining ahamiyati
- 46 **M.Y.Ro'ziyeva, Ch.T.Xemrayeva**
Ta'limda xalq ertaklarining tarbiyaviy ahamiyati va ularni o'rgatishning innovatsion usullari

MA'NAVIY TARBIYA

- 50 **G.Sh.Rahmonova**
Shaxs kamolotida bo'lajak o'qituvchining ma'naviy-axloqiy va pedagogik kompetentsiyalarni shakllantirish
- 55 **M.B.Sharipova**
O'qituvchi-yoshlar tarbiyasida o'lmas an'ana marosimlarning ahamiyati
- 59 **G.B.Ergasheva**
Личностное отношение условий учебной и профессиональной деятельности учителя
- 64 **C.D.Huязова**
Роль игры в экологическом образовании дошкольников
- 69 **J.G.Pasulova**
Формирование элементарных математических представлений у дошкольников через дидактические игры
- 74 **Sh.Sh.Nizomova**
Maktabgacha yoshdagi bolalar nutqini rivojlantirishda tovus tizimini shakllantirish
- 78 **I.X.Rajabova**
Особенности организации и проведения дидактических игр с детьми старшего дошкольного возраста
- 84 **H.A.Xamraeva**
Методы использования инновационных технологий на уроках русского языка и литературы
- 90 **N.S.Turdiyeva, Z.M.Ashurova**
O'z-o'zini tarbiyalash borasidagi ajdodlarimiz qarashlari

KASBGA YO'NALTIRISH VA PSIXOLOGIK XIZMAT

- 94 **G.D.Huязова, H.Ikramova**
Роль методической службы в развитии профессиональной компетентности педагога ДОО
- 99 **L.T.Ochilova, L.Ch.Rajabova**
Математика mashg'ulotlarida didaktik o'yinlardan foydalanishning ahamiyati
- 103 **F.F.Nurullayev, N.A.Ukramova**
Oilada sog'lom, man'aviy-axloqiy muhit
- 107 **Sh.H.Qulieva, A.A.To'raev, F.Sh.Avezova**
Tizimni yondashuv asosida bo'lajak o'qituvchilarni kasbiy-pedagogik tayyorgarligini shakllantirish



MATEMATIKA MASHG'ULOTLARIDA DIDAKTIK O'YINLARDAN FOYDALANISHNING AHAMIYATI

L. T. OCHILOVA,
BuxDU o'qituvchisi
L. CH. RAJABOVA,
BuxDU o'qituvchisi

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida bolaning har tomonlama yetuk bo'lib rivojlanishida tarbiyachining jonkuyarligi, tirishqoqligi juda muhimdir. Topqir tarbiyachi mantiqiy va didaktik o'yinlardan unumli foydalanadi. Ushbu maqolada maktabgacha ta'lim tashkilotlarida matematika mashg'ulotlari jarayonida mantiqiy o'yinlardan foydalanishning ahamiyati bayon etilgan.

Tayanch so'zlar: maktabgacha ta'lim, "Ikki qadam" davlat o'quv dasturi, mantiqiy o'yinlar, o'yin faoliyati

В дошкольном образовании усердие воспитателя очень важно для полноценного развития ребенка. Гениальный педагог эффективно использует логические и дидактические игры. В этой статье обсуждается важность использования логических игр на уроках математики в дошкольных учреждениях.

Ключевые слова: дошкольное образование, государственная учебная программа дошкольного образовательного учреждения «Первый шаг», логические игры, игровые мероприятия

In preschool education, the diligence of the educator is very important for the full development of the child. An ingenious educator makes effective use of logic and didactic games. This article discusses the importance of using logic games in math lessons in preschools.

Key words: preschool education, the state curriculum of the "First Step" preschool educational institution, logic games, game events.

Uzluksiz ta'lim tizimining birlamchi bo'g'ini hisoblangan ushbu soha har tomonlama sog'lom va barkamol bola shaxsini tarbiyalash va maktabga tayyorlashda g'oyat muhim ahamiyat kasb etadi. Lekin, tahlillar shuni ko'rsatdiki, oxirgi yillarda turli omillar ta'sirida maktabgacha ta'lim tizimida bolalarni maktab ta'limiga tayyorlash borasida rivojlanish o'rniga, orqaga ketish holatlari, yil davomida maktabgacha yoshdagi bolalarni maktabgacha ta'lim muassasalariga qamrab olish ko'rsatkichlari o'sishi tendensiyasi kuzatilmadi. Aksincha, so'nggi 20 yil davomida davlat tasarrufidagi maktabgacha ta'lim muassasalari soni 45 foizdan ziyodroq kamayib, bugungi kunda respublika bo'yicha bolalarning



maktabgacha ta'lim bilan qamrab olinishi 30 foizni tashkil etdi. Bunga mavjud maktabgacha ta'lim muassasalarining moddiy-texnika bazasi zamonaviy talablarga javob bermasligi, tizimda variativ dasturlar, bolalarni maktabga tayyorlash bo'yicha muqobil shakllarning ishlab chiqilmaganligi, rivojlangan mamlakatlarning tajribasi yetarli darajada o'rganilmaganligi, faoliyat yuritayotgan pedagog kadrlarning aksariyati oliy ma'lumotli emasligi, ta'lim sifati monitoringi yuritilmaganligi kabi omillar sabab bo'ldi.

Maktabgacha ta'lim muassasalarida maktabgacha yoshdagi bolalarning har tomonlama rivojlanishini ta'minlashga qaratilgan pedagogik jarayon murakkab, shu bilan birga rang-barangdir. Ta'lim-tarbiya samaradorligiga erishishda maktabgacha ta'lim muassasalaridagi har bir faoliyat turini to'g'ri tashkil etish lozim.

MTMLarda mashg'ulotlar davomida eng keng qo'llaniladigan usullardan biri mantiqiy fikrlashga undovchi o'yinlardir.

Mashg'ulotlarda bunday o'yinlardan foydalanish:

1. Har bir bolaga individual qobiliyatini namoyon etishga sharoit yaratadi.
2. Mantiqiy o'yinlar aniqligi, izchilligiga ko'ra, bola rivojlanishining eng ta'sirchan davriga to'g'ri keladi.
3. Mantiqiy o'yinlar orqali bola atrof-muhit haqidagi tasavvurlarini anglashga urinadi.
4. Bunday o'yinlar bolani ham ruhiy, ham jismoniy jihatdan rivojlantira oladi.
5. Mantiqiy o'yinlar orqali bolalar o'z oldiga maqsad qo'yib, unga erishish yo'llarini izlab topadi.
6. Mazkur o'yinlar bolalarni qiyin vaziyatdan qutulish choralarini izlab topishga, fikrlarini bayon etishda bir xillikdan qochishga o'rgatadi.

Matematika mashg'ulotlari uchun juda ko'plab didaktik o'yinlar yaratilgan. Matematikadan sanoqqa doir ba'zi didaktik o'yinlarni quyidagi guruhlarga tasniflash mumkin.

1-guruh. Birinchi o'nlik doirasidagi son tarkibi malakalarini mustahkamlovchi o'yinlar: "Buyumlarni 10 gacha sanash", «To'g'ri va teskari sanash», « Ikkinchi qo'shish va ayirish».

2-guruh. Son tarkibini mustahkamlovchi o'yinlar: «4 soni va raqami», "Teatr", "Nima o'zgardi?". «Norvoncha», «Zanjircha».

Har bir guruh o'yinlardan misol keltiramiz.

1-guruh bo'yicha "Buyumlarni 10 gacha sanash" ga doir didaktik o'yin:



“Jimjitlik”.

Didaktik topshiriq: bolalarning oddiy sanoq haqidagi tushunchalarni aniqlash va mustahkamlash.

O‘yin topshirig‘i: aniq buyumlarni “xayolda” sanab, kerakli sonni barmoqlar bilan ko‘rsatish.

O‘yinning borishi: tarbiyachi boshlovchilik vazifasini bajaradi.

Tarbiyachi:

Bolalar, “Jimjitlik” o‘yinini o‘ynaymiz. Men sizlarga hozir har xil narsalarni ko‘rsataman. Siz ularning sonini topishingiz kerak bo‘ladi.

Bolalar birdan gapga tushib ketadilar.

Yo‘q bolalar. Javob qaytarishdan oldin qo‘l ko‘tarish kerak.

Tarbiyachi bolalarga doira va cho‘plarni sanatadi.

Endi men sizlarga narsalarni ko‘rsataman. Sizlar ovoz chiqarmasdan sanab, qancha bo‘lganini barmoqlaringiz bilan ko‘rsatasiz.

Tarbiyachi 4 ta qo‘g‘irchoqni ko‘rsatganda bolalarning hammasi 4 ta barmog‘ini ko‘rsatadi. Sinfda jimjitlik. Bolalarning butun diqqat-e’tibori topshiriqni bajarishga qaratilgan.

Tarbiyachi:

Barakalla hammangiz to‘g‘ri hisobladingiz. Endi men sanoq cho‘pni bir qo‘limdan ikkinchi qo‘limga olaman, sizlar esa ularni ovoz chiqarmasdan sanang, keyin menga qancha bo‘lganini ko‘rsatasiz.

Bolalar o‘qituvchining harakatlarini kuzatib sanashadi va 10 ta barmog‘ini ko‘rsatishadi.

Bunday o‘yinlar orqali bolalarning birinchi o‘nlik haqidagi bilimlarining taxminiy darajasi aniqlanadi, qancha narsa ko‘rsatilsa, o‘shani barmoq bilan sanab ko‘rsatish malakasi mustahkamlanadi.

Bundan tashqari, ularda ovoz chiqarmay, “Xayolda” sanash ko‘nikmalari ham shakllanadi. Bolalar aslida sanashga ovoz chiqarib takrorlamasdan birdaniga erisha olmaydilar, jimo‘tirishni talab etuvchi o‘yin qoidasigina ularni bunga majbur qiladi va ular ovoz chiqarmay sanaydilar. Bunday qilishning qulay tomoni shundaki, bolalarning butun diqqat e’tibori faqat topshiriqni bajarish bilan band bo‘ladi. Keyingi darsda o‘yin shartlari yana ham murakkablashtiriladi. Bu o‘yin orqali o‘quvchilarda tez harakat qilish malakasi mustahkamlanadi. Shu bilan birga topshiriqni kim tez, kim esa sekin bajarayotganini aniqlab olish imkoni tug‘iladi.

Bolalarning son va raqamlarni uzoq vaqt esda qolishlarining o‘zi bilan ish



bitmaydi. Shuni unutmaslik kerakki, son va raqamlarni, bu tarzda eslab qolish etti yahar bolalar uchun ham xarakterlidir. Tarbiyachi ishining murakkabligi ham ana shundadir.

Materialni puxtaroq o'zlashtirish va aniqlashtirish uchun "Teatr", "Nima o'zgardi?" kabi maxsus o'yinlar o'tkazish yaxshi natija beradi.

2-guruh bo'yicha "4 soni va raqami" ga doir didaktik o'yin: "Nima o'zgardi?".

Didaktik topshiriq: 4 soni tarkibining turli usullarini mustahkamlash.

O'yin topshirig'i: bolalarning turgan joylarini eslab qolish, ularning joy almashganlarini bilish (ya'ni 4 soni tarkibining turli ko'rinishiga doir yozilish usulini ko'rsatish).

O'yinni boshlashdan oldin og'zaki hisoblash mashqi o'tkaziladi. Bolalar masala o'ylab topishadi. Masalan, Karim: "Bitta daraxt bor edi, yana uchta daraxt o'tqazildi, endi daraxtlar 4 ta bo'ldi" - deydi. "Ikkita mashina turgan edi, yana ikkita mashina ularning yoniga kelib to'xtadi,- deydi Rahim,- endilikda mashinalar soni 4 ta bo'ldi". Tarbiyachi bu bolalarni chaqarib, ular aytgan narsalar "xayollarida" qanday joylashtirilgan bo'lsa, o'sha narsalarni xuddi shunday tartibda jadvalga joylashtirishni taklif qiladi.

Tarbiyachi:

"4 sonini yana qanday hosil qilish mumkin?" – deb so'raydi. Bolalar uzoq o'ylanib qolishadi. Tarbiyachi 4 nafar bolani chaqirib, ularni bir safga qo'yadi. Keyin o'quvchilardan biriga bolalarning safda qanday turganliklarini diqqat bilan ko'rib olishini so'ngra xonadan chiqib turishlarini buyuradi. Tarbiyachi bolalarning birini alohida, uchtasini esa yonma-yon qo'yadi. Tashqariga chiqqan bola kirib keladi. U o'zgarishni ko'rgach: "Uch o'quvchi bir joyda, bittasi alohida turibdi" – deydi.

Jami qancha?- deb so'raydi o'qituvchi.

To'rt nafar – javob beradi o'qituvchi.

Demak to'rt sonini qanday hosil qilish mumkin.

Uchga birni qo'shish bilan.

O'yin shu tartibda davom etadi. 4 soni turli yo'llar bilan hosil qilingach, tarbiyachi bolalardan so'raydi:

4 soni qanday hosil bo'ladi? - deb so'raydi. Ko'pchilik bolalar javob berish uchun qo'l ko'taradilar. Chaqirilganlar to'g'ri javob beradilar:

To'rtta birdan, uch bilan birdan, ikki bilan ikkidandan, bir bilan uchdan.

$1+1+1+1, 3+1, 2+2, 1+3$



O‘yin jonli va qiziqarli o‘tadi. Alohida-alohida so‘rash natijasida chiqarilgan bolalarnigina emas, xonada o‘tirgan boshqa o‘quvchilarning ham to‘rt sonining tarkibini yaxshi tushunganlari aniqlanadi. O‘yin besh minut davom etadi. Shundan so‘ng tarbiyachi bolalarni 4 raqami bilan tanishtiradi.

O‘yin bolaning kelajakdagi o‘quv, mehnat faoliyati, kishilarga munosabatining qay darajada shakllanib borishini belgilaydi.

Shunday qilib, bolalar bog‘chasining pedagogik jarayonidao‘yinning tutgan o‘rni juda katta bo‘lib, o‘yindan maktabgacha yoshidagi bolalarni tarbiyalash va ularga ta‘lim berishda keng foydalaniladi. Zero:

o‘yin bolalarning mustaqil faoliyati bo‘lib, unda bolaning ruhiyati namoyon bo‘ladi;

- o‘yin maktabgacha yoshidagi bolalar hayotini tashkil etish shaklidir;
- o‘yin bolalarni har tomonlama tarbiyalash vositalaridan biridir;
- o‘yin bolalarga ta‘lim va tarbiya berishning metod vausulidir;
- o‘yin bolalarni o‘quv faoliyatiga tayyorlash vositasidir.

Bolalarga ta‘lim-tarbiya berish maqadida kattalarning o‘yinni to‘g‘ri tanlay bilishi, unga to‘g‘ri rahbarlik qilishlari «Ilk qadam» Davlat o‘quv dasturi va Maktabgacha ta‘lim davlat talablarida belgilangan vazifalarni muvaffaqiyatli amalga oshirishni ta‘minlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Sh.M.Mirziyoyev. “Erkin va farovon demokratik O‘zbekiston Davlatini birgalikda barpo etamiz” –T.: “O‘zbekiston” 2016-y -56-b.
2. Sh.M.Mirziyoyev. “Tanqidiy tahlil, qat’iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo‘lishi kerak”. –T.: “O‘zbekiston” 2017 y. -104-b.
3. M.Jumayev “Maktabgacha yoshdagi bolalarda matematik tasavvurlarni shakllantirish metodikasi va nazariyasi” T., 2007 y.
4. Raxmonqulova “Maktabgacha yoshdagi bolalarda matematik tasavvurlarni shakllantirish”, T. 2010y
5. www.aim.uz
6. www.referat.arxiv.uz